



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi	1451,0 mlrd. so‘m
Yirik pudrat tashkilotlari ulushi	4,5 %
Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi	79,3 %
Norasmiy sektor ulushi	16,2 %

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Sirdaryo viloyatida jami **1451,0** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **119,5** % ni tashkil qildi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **65,0** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **109,7** % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari **1151,0** mlrd. so‘mni yoki jami qurilish ishlarining **79,3** % ini tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **120,2** % ni tashkil etdi. Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **235,0** mlrd. so‘mni tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **119,2** % ni tashkil qildi.

Yirik qurilish tashkilotlari

hajmi-65,0 mlrd. so‘m
o‘shish sur‘ati-109,7 %


Kichik korxonalar va mikrofirmalar

hajmi-1151,0 mlrd. so‘m
o‘shish sur‘ati-120,2 %

Norasmiy sektor

hajmi-235,0 mlrd. so‘m
o‘shish sur‘ati-119,2 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 72,7 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,9 % bandga ko'paydi.




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 17,1 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,7 % bandga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 10,2 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % ga kamaydi.




**Qurilish ishlarining faoliyat turlari
bo'yicha tarkibi**
(jamiga nisbatan % da)



2019-yil
yanvar-dekabr

- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



2018-yil
yanvar-dekabr


**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlar tarkibi
(mlrd. so‘m)**

	Jami qurilish ishlari	shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo‘yicha		
		yirik pudrat tashkilotlari	kichik korxonalar va mikrofirmalar	norasmiy sektor
Sirdaryo viloyati	1451	65	1151	235
<i>shaharlar</i>				
Guliston	487,2	14	411,3	61,9
Shirin	70,3	1,3	66,1	2,9
Yangiyer	124,3	3,8	106	14,5
<i>tumanlar</i>				
Boyovut	110,5	0,5	89,1	20,9
Guliston	62,9	-	50,1	12,8
Mirzaobod	122,7	9,5	96,1	17,1
Oqoltin	97,4	10,1	74,4	12,9
Sardoba	32,0	-	16,8	15,2
Sayxunobod	59,1	3,8	42,9	12,4
Sirdaryo	189,8	-	137,1	52,6
Xovos	94,8	22	61,1	11,7

Hududlarda qurilish ishlarining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

Sirdaryo viloyati




Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahriga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlarining o'sish sur'ati 118,7 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Sirdaryo tumanida 125,3 %, Mirzaobod tumanida 125,9 %, Yangiyer shahrida 114,3 % va Oqoltin tumanida 127,2 % ni tashkil qildi.

Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Xovos tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 140,8 % ni tashkil qildi.



Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Yirik qurilish tashkilotlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

Norasmiy sektor

Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 79,3 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 120,2 % ni tashkil qildi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan jami qurilish ishlaridagi ulushi 4,5 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,7 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 16,2 % tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 119,2 % ni tashkil qildi.




Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan % da)

2018-yil yanvar-dekabr



2019-yil yanvar-dekabr



-  Davlat mulkchilik shakli
-  Nodavlat mulkchilik shakli


Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 100,2 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 6,9 % ni tashkil qildi yaʼni 2018-yil yanvar-dekabriga nisbatan 0,2 % bandga koʻpaydi.




Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 1350,8 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 93,1 % ni (2018-yil yanvar-dekabriga nisbatan 0,2 % bandga kamayish) tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Guliston shahriga 33,6 % ga to‘g‘ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sirdaryo tumaniga 13,1 %, Mirzaobod tumanida 8,5 % ga, Yangiyer shahriga 8,6 % ga va Boyovut tumaniga 7,6 % dan to‘g‘ri keldi.



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo‘limi.

Aloqa telefoni: (67) 225-02-37
(71) 230-86-27